

“O‘G‘UZNOMA”DA MIFOLOGIK QATLAMLAR TALQINI

Xaliljonova Zilola Xayrullo qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi

1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada “O‘g‘uznoma” dostonining mifologik asoslari va undagi qatlamlar tahlil qilinadi. Asarda shomonlik mifologiyasi bilan bog‘liq motivlar, xususan, O‘g‘uzxonning tug‘ilishi, Oy xoqon timsoli hamda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash g‘oyasi ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, dostonidagi mifologik va epik qatlamlarning o‘zaro uyg‘unligi, ularning qadimgi turkiylarning kosmogonik qarashlari bilan aloqasi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida “O‘g‘uznoma” dostonida qadimgi turkiy xalqlarning diniy e‘tiqodi, dunyoqarashi va badiiy tafakkuri bir butun holda aks etgani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: “O‘g‘uznoma”, mifologiya, shomonlik, mifologik qatlam, epik qatlam, O‘g‘uzxon, Oy xoqon, kosmogonik tasavvurlar, ezgulik va yovuzlik, zardushtiylik, epik ijod, qadimgi turkiy adabiyot.

"O‘g‘uznoma" dostoni qadimgi turkiy xalqlar adabiyotining, xususan, kitobiy eposning bir namunasi bo‘lib, turkiy xalqlarga tegishli merosdir. Ushbu doston "O‘g‘uz xoqon haqida doston" degan nom bilan ham yuritiladi. “O‘g‘uznoma” dostoni eski uyg‘ur-turk yozuvida ko‘chirib qoldirilgan va hozirda Parij milliy kutubxonasida saqlanadi.¹

“O‘g‘uznoma” dostoni mazmunan shomonlik mifologiyasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, unda turli mifologik motivlar va obrazlar yetakchi o‘rin egallaydi. Ma‘lumki, mifologiya sinkretik tabiatga ega: u ibtidoiy inson tafakkurida ilmiy, diniy va badiiy qarashlarning bir butun tizim sifatida shakllanganligini aks ettiradi. Asarda O‘g‘uzxonning tug‘ilishi alohida mifologik ruhda tasvirlanadi. Rivoyatda uning qiyofasi ramziy tasvirlar orqali beriladi (ko‘pincha buqa yoki yirtqich hayvon surati bilan ifodalanadi), so‘ngra Oy xoqon farzand ko‘rib, o‘g‘il dunyoga keltiradi. Ushbu epizod O‘g‘uzning kelib chiqishi bilan bog‘liq mifologik tasavvurlarni ochib beradi. Oy xoqon obrazi qadimgi akkad va shumer mifologiyasidagi ona ma‘buda — Ishtar timsoli bilan qiyoslanadi. Bu esa jamiyat taraqqiyotida onalik urug‘idan otalik urug‘iga o‘tish jarayonining aks etganini ko‘rsatadi. Qadimgi turkiy qarashlarga ko‘ra, Quyosh erkaklik, Oy esa ayollik ibtidosini bildiradi. Yoqut tilida “Oy” so‘zining “yaratmoq”, “vujudga keltirmoq” ma‘nolarini anglatishi ham Oy xoqonni yaratuvchi kuch sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Dostonda muhim o‘rin tutgan yana bir mifologik motiv — O‘g‘uzning o‘rmonda bahaybat yirtqich bilan kurashidir. Ushbu syujet ildiz jihatidan Markaziy Osiyo xalqlari

¹ Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. -Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. - 114-b.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

epik an'analarida keng tarqalgan ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi qarama-qarshilik g'oyasiga borib taqaladi. Xususan, Avestoda Axriman (yovuzlik) va Xurmuzd (ezgulik) o'rtasidagi kurash ayni shu g'oyaning yorqin ifodasidir. Bu dualistik qarash keyinchalik moniylik adabiyotida ham davom etib, "Xuastuanift" asarida Xo'rmuzd va Shmnu o'rtasidagi qarama-qarshilik tarzida namoyon bo'ladi. "O'g'uznoma"dagi ushbu kurash motivi ertaklarga xos syujet bilan hamohangdir. O'g'uz yirtqichni qo'lga tushirish maqsadida dastlab bug'uni, keyin ayiqni daraxtga bog'lab qo'yadi, uchinchi kuni esa o'zi yolg'iz holda yirtqichni kutib, uni yengadi. Bu yerda yirtqich yovuzlik ramzi sifatida talqin qilinsa, O'g'uz ezgulik timsoli sifatida gavdalanadi. O'g'uzning tug'ilishidan tortib yirtqichni mag'lub etishigacha bo'lgan voqealar tizimi asarning birinchi — mifologik qatlamini tashkil etadi. Aynan shu qatlamda zardushtiylik ta'siri, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash g'oyasi hamda ertaklarga xos syujet sxemalari uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Asarning ikkinchi qatlamida esa eposga xos syujetlar ustuvorlik qiladi. Jumladan, O'g'uzxonning uylanishi bilan bog'liq voqealar bunga yaqqol misoldir. Rivoyatga ko'ra, O'g'uz Tangriga iltijo qilayotgan paytda osmondan nur tushadi va shu nur ichida nihoyatda go'zal qiz paydo bo'ladi. Uning boshidagi yorug'lik oltin qoziq yulduziga qiyos qilinadi, go'zalligi esa osmon bilan bog'liq tasvirlar orqali ifodalanadi. Bu epizod qadimgi turkiylarning kosmogonik tasavvurlari bilan bevosita bog'liqdir. Kosmogonik mifologiya ibtidoiy insonning olamning yaralishi, koimot tuzilishi va insonning paydo bo'lishi haqidagi qarashlarini o'zida mujassam etadi.

Shu asosda, Tangridan — ya'ni osmondan kelgan qiz bilan O'g'uzxonning turmushi natijasida uch o'g'il dunyoga keladi va ularga Kun, Oy, Yulduz kabi nomlar beriladi. Bu nomlar ham kosmogonik qarashlarning badiiy ifodasi sifatida talqin etiladi.

Umuman olganda, "O'g'uznoma" dostoni ikki asosiy qatlam — mifologik va epik qatlamlar uyg'unligidan tashkil topgan bo'lib, unda qadimgi turkiylarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari hamda badiiy tafakkuri o'zaro birlashgan holda namoyon bo'ladi.